


O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

**60721500-Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari**

Toshkent-2023



## **ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti;

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil  
«7» 08 dagi 344-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Oliy ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60721500 – Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiyl tavsifi .....</i>	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1.	<i>60721500 – Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talabining qo‘llanishi .....</i>	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60721500 – Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....</i>	4
1.2.1.	<i>60721500 – Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.....</i>	4
1.2.2.	<i>60721500 – Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....</i>	4
1.2.3.	<i>60721500 – Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari.....</i>	5
1.2.4.	<i>60721500 – Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy vazifaları.....</i>	5
2.	<i>60721500 – Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar .....</i>	6
2.1.	Umumi kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3.	Umumi va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar	7
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	8
2.3.2.	<i>60721500 – Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.....</i>	8
2.3.3.	<i>60721500 – Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:</i> Bibliografik ma’lumotlar.....	10
	Kelishuv varag‘i .....	11

## **1. 60721500 – Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi**

*60721500 – Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi.**

#### **1.1.1. 60721500 – Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka *60721500 – Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasaining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilar;

- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;

- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

#### **1.2. 60721500 – Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tasnifi**

##### **1.2.1. 60721500 – Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat kasbiy faoliyatining sohalari:**

*60721500 – Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari)* – fan sohasidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘lib, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim yo‘nalishiga oid fanlarni o‘qitish; O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot instittlari, davlat boshqaruvi organlari, kompleks masalalar bilan bog‘liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

##### **1.2.2. 60721500 – Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

- O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida;

- foydali qazilmalarni ochiq usulda qazib oluvchi konchilik korxonalarida;

- tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi va tasarrufidagi tashkilotlarda;

- kon-metallurgiya tizimidagi idoralarda;

- tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimidagi laboratoriyalarda;

- ishlab chiqarish korxonalarida;

- davlat boshqaruvi organlarida kompleks masalalarni yechish.

*60721500 – Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bitiruvchilarini fan sohasidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishini tamomlagandan so‘ng, konlarni ochiq usulda qazib oluvchi konchilik korxonalar, kon-texnik, konchilik ishlarida fizik-teknologik va metriologik nazorat, konchilik ishlab chiqarishi mashina va uskunalari, obyektlarni yaratish va ulardan foydalanishning samarali jarayonlarida kompleks masalalarni yechish

huquqiga ega bo‘ladi.

*Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqgan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo‘srimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.*

**1.2.3. 60721500 – Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- muhandislik va loyiha-konstrukturlik faoliyati;
- ishlab chiqarish – texnologik faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ilmiy – tadqiqot faoliyati;
- foydalanish-servis faoliyati.

*Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqgan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo‘srimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tayyorlangan bakalavrular kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta’lim jarayonining mansaattor ishtirokchilari bilan hamkorlikda olyi ta’lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.*

**1.2.4. 60721500 – Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy vazifalari.**

*60721500 – Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:*

- Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish faoliyatida:
  - zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan qurilish ishlab chiqarishi texnologik jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslublari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
  - atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga rioya qilish talablaridan kelib chiqib ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
  - ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishda sifatni boshqarish;
  - ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
  - fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;
  - birlamchi ishlab chiqarish bo‘g‘inining ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
  - bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirishda erishilgan natijalarini baholash;
  - ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong‘in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish ko‘nikmalari.

muhandislik ishi jabhasidagi obyektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalardan samarali foydalanish;

- tizimlar, texnologik jarayonlar, ularning elementlari va texnologik hujjatlarni ishlab chiqishda ijrochilar jamoasi tarkibida ishtirok etish;
- obyektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalarning ekspluatatsiya xavfsizligini ta’minalash;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bo‘yicha texnologik yechimlarni ishlab chiqish;
- texnikaviy-iqtisodiy tahlil qilish;
- ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali usullarini tanlash va qo‘llash;
- kasbiy etika koidalariiga rioya qilish.

### **Muhandislik va loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:**

- ochiq kon korxonalarining loyihasini tizimli yondashuv asosida avtomatlashtirilgan ravishda ishlab chiqish qobiliyatları;
- bajarilayotgan tajriba va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha texnologiyalar ishlab chiqish va tadqiqot qilish;
- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;
- talab va taklif nazariyasidan foydalanish; biznes-rejani ishlab chiqish ko'nikmalari shakllangan bo'lishi;
- korxonani boshqarish asoslarini, korxonani boshqarishdagi iqtisodiy-matematik usullarini, boshqaruvchi xodimlarni shakllantirish jarayonini, korxonaning hayot siklini bilishi va ulardan foydalana olishi;
- ishlab chiqarish tarmoqlarida xavfsiz ish sharoitini tashkil etishni; zararsiz ish sharoitini ta'minlovchi umumiy va shaxsiy himoya qilish vositalaridan foydalanish ko'nikmasi shakllangan bo'lishi;
- amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyoragarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash qobiliyatlarini o'zlashtirish.

### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi;
- ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarini bajarish;
- ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta'lim yo'nalishi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;
- ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;
- ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo'yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;
- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan malumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;
- muhandislik ishi ta'lim sohasidagi maxsus adabiyotlar, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar, chet elda va respublikamizda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;
- ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish.

**2. 60721500 – Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr larning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

#### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi; gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tessavvurga ega bo'lish.

#### **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- matematik va tabiiy-ilmiy fanlar bilan ixtisoslik fanlari o'rtasida ilmiy va nazariy bog'liqlikni ta'minlashi;
- ixtisoslik fanlarini o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va uquvlarni shakllantirishi;
- umumkasbiy vazifalarni hal etishda fan va ta'larning zamonaviy muammolariga doir bilimlardan foydalanishga tayyorlashi;
- umumkasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga doir axboriy-didaktik ta'minotni yaratish malakasini tarkib toptirishi;
- modelli tasavvurlarni, tajriba usullari va olingan natijalarni qayta ishlashga oid bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini ta'minlashi;
- bajarilayotgan tajriba-konstrukturlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informasion va imitasjon modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilishni bilish;
- loyihibiy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash qobiliyatlarini o'zlashtirishni bilish;
- kasbiy etika kodeksiga rioya qilish ko'nikmalariga ega bo'lish; foydali qazilmalarni ochiq usulda qazib olish sohasidagi maxsus adabiyotlar, ilmiy texnikaviy ma'lumotlar, chet elda va Respublikamizda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi yutuqlarni o'rganish ko'nikmalariga ega bo'lish borasida *ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*.

### **2.3. Umumiylar va kasbiy kompetensiyalarini egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Bakalavriat ta'limga yo'nalishi o'quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantiriladi va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar *majburiy va tanlov* fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqiladi.

#### **1. Majburiy fanlar (mantiqiy uzviyligi bo'yicha):**

Mantiqiy davomli fanlar – mantiqiy ketma-ketlikda bir-birini to'ldiruvchi fanlar jamlamasi. Bunda oldin keladigan fan bo'yicha talabaning kredit ololmasligi, keyingi mantiqiy davomi bo'lgan fan bo'yicha talabaning mashg'ulotlarga kiritilmasligiga olib kelishi mumkin.

Alovida fanlar – kasbiy kompetensiyalarini yakka holda shakllantirishga xizmat qiladigan davomli bo'lmagan fanlar. Bunda mazkur fanlar bo'yicha talaba kredit ololmaganiga GPA bo'yicha o'zlashtirish ballari yetarli bo'lsa, keyingi bosqichda boshqa fanlar bo'yicha talabaning mashg'ulotlarni davom ettirish imkonini beradi.

#### **2. Tanlov fanlari.**

Chuqur ixtisoslashuv tanlov fanlari – ixtisoslashuvdan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan fanlar bo'yicha qo'shimcha bilim berishga va bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarini kengaytirishga xizmat qiladigan fanlar jamlamasi. Ushbu fanlarga jami tanlov fanlariga ajratilgan soatlarning 80 % dan kam bo'lmagan qismi taqsimlanishi mumkin.

Shaxsiy qiziqishga qaratilgan fanlar – talabaning tanlagan ta'limga yo'nalishidan qat'iy nazar, shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar. Ushbu fanlarga jami tanlov fanlariga ajratilgan soatlarning 20 % dan ko'p bo'lmagan qismi taqsimlanishi mumkin.

Ta'limga oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda kasbiy kompetensiyalari kengaytirishga xizmat qiluvchi fanlar majmuasidan iborat bo'lib, har bir tanlov

fanlar jamlamasiga uchtdan kam bo‘lмаган о‘рнини bosuvchi fanlar kiritilishi mumkin. O‘quv rejadagi tanlov fanlari majmuasining umumiy soni 10 tagacha bo‘lishi mumkin.

### 3. Malakaviy amaliyat.

Bakalavrlar tayyorlashda quyidagi malakaviy amaliyotlar o‘tkaziladi:

1-bosqichda malakaviy amaliyat – O‘quv geologik tanishuv va geodezik amaliyat o‘tilgan fanlar bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini egallashga qaratiladi;

2,3-bosqichlarda malakaviy amaliyat - ishlab chiqarishda (tegishli soha korxona, tashkilot va muassasalarida) umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlar bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

4-bosqichda malakaviy amaliyat - ishlab chiqarishda (tegishli soha korxona, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko‘nikmalarini yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma’lumot to‘plash va tizimlashtirishga qaratiladi;

Ta’lim yo‘nalishlarining o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq malakaviy amaliyotlarning boshqa turlari ham qo‘llanilishi mumkin.

#### 2.3.1. Kvalifikatsiya: Kon muhandisi

2.3.2. *60721500-Konchilik ishi (foydalı qazilmalarni boyitish) ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.*

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilagan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5100	170
Tanlov fanlar	1470	49
Malakaviy amaliyat	480	16
Yakuniy davlat attestatsiyasi	150	5

**2.3.3. 60721500-Konchilik ishi (foydali qazilmalarni boyitish) bakalavriat ta'lim yo'nalishi  
bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklanamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>5100</b>	<b>170</b>	
1.01	O'RT11104	O'zbek (rus) tili	120	4	1
1.02	DIN11104	Dinshunoslik	120	4	1
1.03	KIM11104	Kimyo	120	4	1
1.04	XT11308	Xorijiy til 1,2	240	8	1, 3
1.05	FIZ11208	Fizika 1,2	240	8	1,2
1.06	OM11314	Oliy matematika 1,2,3	420	14	1,2,3
1.07	O'EYT11204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.08	TTAT11204	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari	120	4	2
1.09	MKG11204	Muhandislik va kompyuter grafikasi	120	4	2
1.10	MS12304	Metrologiya va standartlashtirish	120	4	3
1.11	SIM14704	Soha iqtisodiyoti va menejmenti	120	4	7
1.12	FAL13504	Falsafa	120	4	5
1.13	EKA13504	Ekologiya	120	4	6
1.14	XFX14804	Hayot faoliyati havfsizligi	120	4	8
1.15	GEOD11204	Geodeziya	180	6	2
1.16	ELTEX12404	Elektrotexnika va elektronika	120	4	4
1.17	AMMEX12306	Amaliy mexanika	180	6	3
1.18	KIA12410	Konchilik ishi asoslari	300	10	3,4
1.19	GEOM12410	Geomexanika	300	10	3,4
1.20	KOUQOT 14812	Foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olish texnologiyasi	360	12	7,8
1.21	NKQO13610	Noruda konlarni qazib olish	300	10	5,6
1.22	GE11104	Geologiya	120	4	1
1.23	GID14706	Gidrogeologiya	180	6	7
1.24	KOUQOJ13609	Foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olish jarayonlari	270	9	5,6
1.25	KKLOY14810	Konchilik korxonalarini loyihalash	300	10	7,8
1.26	YOKI14809	Yer osti konchilik ishlari	270	9	7,8
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1470</b>	<b>49</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlar (8 ta fan)</i>	<b>1470</b>	<b>49</b>	<i>4,5,6,7,8</i>
		<b>Jami</b>	<b>6570</b>	<b>219</b>	
		<b>Malakaviy amaliyot</b>	<b>480</b>	<b>16</b>	<b>2,4,6,8</b>
		<b>Yakuniy davlat attestatsiyasi</b>	<b>150</b>	<b>5</b>	<b>8</b>
		<b>Jami</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	



## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01


---

### Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi, qonun, qoida, qaror, oliv ta'lim, o'quv jarayoni, konsalting, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, konchilik korxonalarli, tog'-kon ishlari, texnika-texnologik xavfsizlig, konchilik korxnonalarli tizimlari, ochiq kon ishlari jarayonlarini avtomatlashtirish, baholash, sifat nazorat, davlat attestatsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, mundarija, oliv ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, profil, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi, ichki nazorat, yakuniy davlat nazorati, davlat-jamoatchilik nazorati, tashqi nazorat, moddiy-texnik baza.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari  
**ISHLAB CHIQILGAN:**

Islom Karimov nomidagi  
Toshkent davlat texnika universiteti

Rektor  prof. S.M.Turabdjanov


2023 yil « 03 » 07



M.O'.

**KELISHILGAN:**

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor  Sh.Yakubov

2023 yil « 06 » 07

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzurudagi

Tog'-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi

Boshqarma boshlig'i

A.N.Yunusov

2023 yil « 06 » 07

M.O'.

“Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Rektor  B.T.Mardonov

2023 yil « 06 » 07

M.O'.

**“OKMK” AJ**

Ilm-fan bo'yicha bosh muhandis o'rinnbosari

 A.S. Hasanov



2023 yil « 06 » 07

M.O'.

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti  
60721500-Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha  
malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim  
muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida**

## **KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

"7" 07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori prof. S.M.Turabdjanov, "OKMK" AJ Ilm-fan bo'yicha bosh muhandis o'rinosari A.S. Hasanov, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti rektori B.T.Mardonovlar birgalikda ToshDTUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:  
**60721500-Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari).**

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son Qarorlariga hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 9 iyundagi "Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-tonli buyrug'i hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**"OKMK" AJ Ilm-fan bo'yicha  
bosh muhandis o'rinosari**

**"Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar  
universiteti" rektori**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat  
texnika universiteti rektori, professor**



**B.T.Mardonov**



**S.M.Turabdjanov**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida ishlab  
chiqilgan 60721500-Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) ta'lif yo'nalishi  
bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrilar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va  
zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari  
va o'quv rejasiga**

**TA Q R I Z**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida 60721500-Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) ta'lif yo'nalishi malaka talablari ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori, 2019 yil 17 yanvardagi PQ-4124-son «Kon-metallurgiya tarmog'i korxonalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, 2020 yil 10 iyuldagli PQ-4779 "Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalg etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg'i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda O'zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi "Oliy ta'lifning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan tamoyillarga amal qilingan.

60721500-Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) ta'lif yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasidi xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lif oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilari to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobjiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingen ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rinn berilgan.

Malaka talablarni ishlab chiqishda talabaning kelgusida faoliyat olib boradigan ob'ektlari misolida fan va texnikaning ilg'or yutuqlaridan foydalangan holda jahon ta'lif makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlarni shakllantirishda ularning mazmuni jihatidan izchilligi ta'minlangan bo'lib, bugungi kun talabidan kelib chiqib yangi fanlar kiritilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda asosiy kadr iste'molchilari bo'lgan korxona va tashkilotlarning talab hamda takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60721500-Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrilar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliv ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarini o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**"OKMK" AJ Ilm-fan bo'yicha  
bosh muhandis o'rinnbosari**



A.S. Hasanov

АО "ALMALIKSKIY GMK"  
OTDEL PO NAUKE  
I INNOVATSIYAM  
63- 14 JUL 2023  
01 07.2023G.

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida  
ishlab chiqilgan 60721500-Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) ta'lif  
yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrilar tayyorlashning tayyorgarlik  
darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan  
malaka talablari va o'quv rejasiga**

**TA Q R I Z**

"Ta'lif to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish, ta'lif mazmunini tubdan isloq qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta'lif, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg'or jahon darajasiga muvofiqligini ta'minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog'liq.

60721500-Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) ta'lif yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasini O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli Qarori hamda O'zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi "Oliy ta'lifning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-sonli buyrug'i, oliy ta'lif sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta'lif yo'nalishi o'quv rejasini kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqilgan.

60721500-Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) ta'lif yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lif oluvchilapda chuqup bilim, mustaqil fikplash, yuksak kasb-kop malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilari to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan va texnika oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobjiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rinn berilgan.

Malaka talablarni ishlab chiqishda ta'lifni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashuv sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon

ta'lismakoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt budgetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lismuassasalaining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60721500-Konchilik ishi (ochiq konchilik ishlari) ta'lism yo'nalishi bo'yicha bakalavrilar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lism o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarни o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**O'zbekiston Respublikasi**

**Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzurudagi**

**Tog'-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini**

**nazorat qilish inspeksiyasi**

**Boshqarma boshlig'i**



**A.N.Yunusov**